

QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA  
PEDAGOGY

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING SHAKLLANISHI

*Turg'unov Nurmuxammad Sobitovich*  
Namangan Davlat Universiteti tadqiqotchisi  
Electron pochta: [998911806002n@gmail.com](mailto:998911806002n@gmail.com)  
Tel: +998911806002

**Anotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning shakllanishi va uning samarali tizimga aylanishi masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola inklyuziv ta'limning mohiyati, asosiy tamoyillari va uning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri haqida ma'lumot beradi. Maqola, inklyuziv ta'limning nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatiga ham to'xtaladi va maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning istiqbollari hamda mavjud muammolarni hal etish yo'llarini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, pedagogika, ta'lim tizimi, bolalar, inkluziv muhit, o'qituvchi, ota-onalar, ta'lim muassasasi, pedagogik tamoyillar, inklyuziv yondashuv.

## ФОРМИРОВАНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы формирования инклюзивного образования в дошкольных образовательных учреждениях и превращения его в эффективную систему. В статье приведены сведения о сущности инклюзивного образования, его основных принципах и влиянии на детей дошкольного возраста. Рассматриваются также не только педагогические, но и социальные аспекты инклюзивного образования, а также перспективы развития инклюзивного образования в дошкольном образовании и пути решения существующих проблем.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, дошкольное образование, педагогика, образовательная система, дети, инклюзивная среда, учитель, родители, образовательное учреждение, педагогические принципы, инклюзивный подход.

## THE FORMATION OF INCLUSIVE EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Annotation:** This article discusses the formation of inclusive education in preschool educational institutions and its transformation into an effective system. The article provides information on the essence of inclusive education, its main principles, and its impact on

preschool-aged children. It also addresses the social as well as pedagogical importance of inclusive education and analyzes the prospects for its development in the preschool education system, along with ways to solve the existing problems.

**Keywords:** Inclusive education, preschool education, pedagogy, education system, children, inclusive environment, teachers, parents, educational institution, pedagogical principles, inclusive approach.

**Kirish:** Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday etiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim tizimiga alohida ahamiyat berilgan. Birinchi Prezidentimiz tomonidan boshlangan ta'lim sohasidagi isloxotlar bugungi kunda Sh. M. Mirziyoyev tomonidan izchil davom ettirilmoqda. Jahon sivilizasiyasi shuni korsatadiki, ta'lim tizimini yuqori darajaga ko'tarmasdan turib boshqa sohalarda yutuqlarga erishib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi hamda ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, qonunning 9- moddasida esa "Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi." deb, ko'rsatib o'tilgan[1]. Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi", "Aqliy jihatdan orqada qolgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiyasi" "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi, "Ta'lim hamma uchun" reja-dasturi to'g'risidagi Dakar deklaratsiyasi, "Osiyo va Okeaniya mamlakatlari nogironlar huquqlarini muhofaza qilish choratadbirlari dasturi", "Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha Standart qoidalar", "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi konvensiya va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo'lib, bu xalqaro-huquqiy asoslar ta'lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-sentabrdan kuchga kirgan yangi taxrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan

qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5006-sonli Farmoni O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu mavzuni yoritishga oid huquqiy asosdir[2]. Inklyuziv ta’lim alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarning tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o‘qishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirishda muhim o‘rin tutadi. MTTlarida inklyuziv ta’lim tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun esa quyidagi talqin ko‘proq to‘g‘ri keladi. Inklyuziv ta’lim – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion – uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirilgan, o‘ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma’nolarini, lotinchada esa includ – qamrab olaman, jalb qilmoq, ya’ni alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan va oddiy bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishdir. MTTlarda joriy etilgan inklyuziv ta’limning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarning oddiy tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o‘qishi, teng huquq va imkoniyatlar tengligini berish, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish, o‘quvchilarning ta’lim olishlari uchun zaruriy pedagogik-psixologik va korreksion sharoitlarni yaratishdan iboratdir. MTTlarga oddiy bolalarning barchasi borsa, alohida e’tiborga muhtoj bolalar ham jalb etilishi kerak. Inklyuziv ta’limning oiladan, MTTgacha ta’lim muassasalaridan boshlab yo‘lga qo‘yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko‘nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, MTTlarida tengdoshlari qatori darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishiga, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmasini egallashlariga ko‘maklashadi. MTTlarda inklyuziv ta’lim – alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar yoki boshqa sabablar tufayli tarbiyasi og‘ir, yetim bolalar uchun moslashuvchan, individuallashtirish va barcha bolalarga teng xuquq va imkoniyatlar tengligini beradigan ta’lim tizimidir. Shuningdek, inklyuziv ta’lim – millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma’naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o‘rni, jismoniy yoki rivojlanishda kamchiligi bo‘lishidan qat’iy nazar barcha bolalarni teng ko‘rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta’lim hisoblanadi. Inklyuziv bog‘chalar – inklyuziv ta’lim tashkil etilgan MTTlar bolalarning bilim olishi shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. bolalari turlicha, sog‘lom va yengil darajada nogiron bo‘lgan, ularning barchalariga har birlari uchun o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoit yaratilgan bog‘chadir. Inklyuziv ta’lim alohida e’tiborga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o‘zgaruvchan, g‘amxo‘rlik bilan yondasha oladigan ta’lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me’yorda rivojlangan bolalar o‘quv muassasalarida amalga oshiriladi. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga nuqsonidan kelib chiqqan holda individual yondashish, ular uchun qulay sharoit yaratish kerak. Alohida e’tiborga muhtoj bolalar uyiga yaqin, o‘ziga qulay ommaviy bog‘cha yoki mttga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Umumta’lim mttlarda inklyuziv ta’lim jarayoni o‘ziga xos

murakkabliklarga ega bo‘lib, shu sohada ishlaydigan mutasaddilar, o‘qituvchilar zimmasiga jiddiy talablar qo‘yiladi. Bunday ta‘limda sinf rahbari, fan o‘qituvchilari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari yordam ko‘rsatish borasidagi xizmatlarni bajaradilar. Sog‘lom bolalar bilan alohida e‘tiborga muhtoj bolalar orasidagi tafovut o‘zidagi jismoniy imkoniyatining cheklanganligi sababli o‘z tengdoshlariga qo‘shilmaslik, tortinchoqlik, uyalgan yoki kamsitilgan ba‘zilarining esa oilada haddan tashqari avaylanganliklari sababli qaysar, injiq bo‘lib qolganliklari tufayli yuzaga keladi. Har bir inklyuziv ta‘lim tashkil etilgan umumta‘lim mntlarda maxsus tayyorgarlikga ega (resurs) pedagog bo‘ladi. Inklyuziv ta‘lim tashkil etilgan muassasalar nufuzining qanchalik muhimligi, mana shu maxsus tayyorgarlikga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga bog‘liqdir. Chunki, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko‘maklashadi, maxsus o‘qitish uskunalari, jihozlari bilan ta‘minlaydi, ota-onalar, o‘qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o‘tkazadi, dars jadvali, dasturga, kerak bo‘lsa, o‘zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi. Shuningdek, shu yo‘nalishda ishlaydigan o‘qituvchilarning malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi, sog‘liqni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta‘limga jalb qilingan va alohida e‘tiborga muhtoj bolalar ta‘lim-tarbiyasini tashkil etishda ta‘lim-tarbiyada yuqori muvaffaqiyatlarga erishishda uchraydigan turli muammolar bolalarning individual ruhiy kechinmalarining qanchalik hisobga olinishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Alohida e‘tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarda o‘ziga ishonch hissini orttirish, umidsizlikka berilishining oldini olishda o‘qituvchi faoliyati ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilishi zarur. Inklyuziv ta‘limda oddiy o‘qituvchilar treningi va mntning barcha uchun faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash zarur bo‘lgan boshlang‘ich holatni yaxshilash uchun o‘qituvchilar sinflarda barcha bolalarda javobgarlik hissini uyg‘otishlari kerak bo‘ladi. Alohida e‘tiborga muhtoj o‘quvchilarning qiziqishlariga mos, bilim va qobiliyatlariga monand ta‘lim berish sinf xonasida umumiy tarzda olib boriladigan faoliyatdir[3].

### **Adabiyotlar tahlili**

Maktabgacha ta‘limda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy ish olib borgan olimlar orasida D. S. Khokhlova, M. S. Soboleva, I. V. Vasilyeva, O. F. Rakhimova va T. X. O‘ktamova kabi mutaxassislar e‘tiborga loyiq bo‘lib, ular inklyuziv ta‘limning pedagogik, ijtimoiy va psixologik jihatlarini o‘rganib, ta‘lim tizimiga joriy etishning samarali yo‘llari va metodlarini ishlab chiqqan, shuningdek, bu tizimni rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlar va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish zarurligini ta‘kidlagan[4]. Bulardan, D. S. Khokhlova – Inklyuziv ta‘lim tizimini maktabgacha ta‘lim muassasalarida joriy etish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni olib borgan. U pedagogik jihatdan inklyuziv yondashuvni o‘qituvchilar va ta‘lim muassasalarida amaliyotga tadbiq qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqdi. Khokhlova, inklyuziv ta‘limni rivojlantirishda ijtimoiy muhitning o‘rni va pedagogik mutaxassislarning kasbiy mahoratiga alohida e‘tibor qaratgan. Bundan tashqari, M. S. Soboleva – Soboleva, maktabgacha ta‘lim muassasalarida inklyuziv yondashuvning pedagogik asoslarini o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida, alohida ehtiyojli bolalarga ta‘lim berishning zamonaviy usullari va inklyuziv ta‘lim metodlari keng yoritilgan. Soboleva,

inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishiga yordam beruvchi interaktiv texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa, I. V. Vasilyeva esa, inklyuziv ta'limni ilgari surish va maktabgacha ta'lim tizimida joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri. Uning ishlari, maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida inklyuziv ta'limning samarali qo'llanishi va bu yondashuvni pedagogik amaliyotga kiritishning ijtimoiy muhimligi haqida bo'lib, inklyuziv ta'limni o'rgatish bo'yicha metodik asoslar yaratishga qaratilgan. Shuningdek, O. F. Rakhimova ham inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi va uning O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga tatbiq etilishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlarida inklyuziv ta'limning nafaqat metodik, balki ijtimoiy va psixologik aspektlari ham o'rganilgan. Rakhimova, inklyuziv ta'limni joriy etishda o'qituvchilarning roli va ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bu olimlar, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid turli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borish bilan birga, ta'lim tizimining ijtimoiy va pedagogik jihatlarini chuqur o'rgangan va kelajakda inklyuziv ta'limning samarali tatbiqi uchun muhim ilmiy asoslar yaratgan.

### **Metotologik qism**

Ushbu tadqiqotda inklyuziv ta'limni maktabgacha ta'lim muassasalarida joriy etish samaradorligini oshirish maqsadida nazariy tahlil, empirik tadqiqot, statistik tahlil, eksperimental ish va tajriba almashish metodlari qo'llanilib, nazariy tahlil inklyuziv ta'limning pedagogik va psixologik tamoyillari hamda metodlarini o'rganishga, empirik tadqiqot o'qituvchilar, ota-onalar va bolalar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar va intervyular orqali inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabatni aniqlashga, statistik tahlil inklyuziv ta'limning ta'lim muassasalarida qo'llanilishining natijalarini yig'ish va baholashga, eksperimental ish turli pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazishga, tajriba almashish esa inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan. Misol uchun, nazariy tahlil metodi orqali inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini o'rganish, uning maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash. Bu jarayonda inklyuziv ta'limning pedagogik tamoyillari, metodlari va strategiyalari tahlil qilingan bo'lsa, empirik tadqiqot orqali maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonini o'rganish uchun so'rovnomalar, intervyular va kuzatishlar o'tkazildi[5]. Bu tadqiqotlar orqali o'qituvchilar, ota-onalar va bolalarning inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabati, tajribalari va ehtiyojlari aniqlanadi. Bundan tashqari, statistik tahlil orqali inklyuziv ta'limning samaradorligini baholash uchun statistik ma'lumotlar yig'ildi va tahlil qilindi. Masalan, 2022/2023-o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumta'lim maktablari soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga qamrab olindi. Shuningdek tajriba almashish metodi orqali esa inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha o'zaro tajriba almashish, umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash muammolari va istiqbollari bo'yicha o'zaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida anjumanlar tashkil etildi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali inklyuziv ta'lim

tizimini maktabgacha ta’lim muassasalarida samarali joriy etish va rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

### **Natijalar**

Ushbu tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim tizimining maktabgacha ta’lim muassasalarida rivojlanishi va uning samaradorligini oshirish borasidagi muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. 2023-2024 o‘quv yilining birinchi yarmida O‘zbekistondagi 530 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasasida inklyuziv ta’lim tizimi muvaffaqiyatli joriy etilib, 1 195 nafar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola qamrab olindi. Bu, inklyuziv ta’limning mamlakatimiz ta’lim tizimiga kirib borishini va imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda amalga oshirilgan yangi yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim tizimida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirishning ijobiy natijalari kuzatilmoqda. Ayni paytda, 2023-2025-yillarda inklyuziv ta’lim tizimini maktabgacha ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich amalga oshirish rejalashtirilgan. 2023 yilga kelib, O‘zbekistonda jami 7 104 ta maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, ulardan 5 604 tasi davlat, 63 tasi idoraviy va 1 437 tasi nodavlat muassasalaridir, shuningdek, 2023 yil oxiriga qadar 1 200 ta maktabgacha ta’lim muassasasida inklyuziv ta’limni joriy etish ko‘zda tutilgan. Bu davr mobaynida inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishiga yo‘l ochgan yuridik asoslar ham kuchaytirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmonlari va qarorlari asosida, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan va bu tizimni samarali joriy etishga qaratilgan ko‘plab hujjatlar ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda inklyuziv ta’lim tizimi bilan bog‘liq qonunlar, davlat dasturlari va tashkilotlarning amaliy faoliyati inklyuziv ta’limning sifatli rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, inklyuziv ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim muassasalarida sifatli rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun pedagogik yondashuvlarni optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Inklyuziv ta’lim metodlarini amaliyotga tatbiq etish natijasida, alohida ehtiyojli bolalar o‘rtasida rivojlanishning ijobiy dinamikasi qayd etildi va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Buning natijasida, maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etishning samaradorligi oshdi va kelajakda bu tizimni kengaytirish imkoniyatlari yaratilmoqda[6].

### **Muxokama**

Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning shakllanishi O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishida muhim bir o‘rin tutadi, chunki bu tizim alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarga o‘z imkoniyatlarini kengaytirish, ularni jamiyatga integratsiyalash va barcha bolalarga teng ta’lim imkoniyatlarini taqdim etish uchun zaruriy sharoit yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, inklyuziv ta’lim tizimi bir necha yillardan beri O‘zbekistonda rivojlanib bormoqda, va ayni paytda bu tizimning joriy etilishi maktabgacha ta’lim muassasalarida ham o‘z aksini topmoqda. Respublikada inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, shu jumladan Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to‘g‘risidagi qarori, bu tizimning takomillashuviga va kengayishiga asos bo‘ldi[7]. 2020-yilning oxiriga qadar 1 200 ta maktabgacha ta‘lim muassasasida inklyuziv ta‘limni joriy etish rejalashtirilgan, bu esa 2023-yilda samarali amalga oshirilgan va ko‘plab maktabgacha ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘lim amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, inklyuziv ta‘limni joriy etish uchun pedagogik yondashuvlar va metodikalarga e‘tibor qaratilishi zarur. Bu tizimni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni malakasini oshirish, ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish, va o‘quvchilar bilan alohida ishlash uchun zarur bo‘lgan materiallar va resurslar yaratish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta‘lim tizimining samarali ishlashiga pedagogik amaliyot, muallimlarning psixologik tayyorgarligi va maktabgacha ta‘lim muassasalarining metodik jihozlanishi katta ta‘sir ko‘rsatadi.

### **Xulosa**

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘limning shakllanishi O‘zbekiston ta‘lim tizimining yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu tizimning joriy etilishi alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularni jamiyatga integratsiyalash va ta‘lim sohasida teng imkoniyatlar yaratish maqsadida muhim qadamlardir. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, inklyuziv ta‘lim tizimini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan huquqiy va pedagogik islohotlar, shuningdek, maktabgacha ta‘lim muassasalarida zarur resurslarning taqdim etilishi tizimning samarali ishlashini ta‘minlamoqda. Maqsadli chora-tadbirlar va davlat tomonidan belgilangan strategik yo‘nalishlar inklyuziv ta‘limni joriy etishda muhim omil bo‘lib, O‘zbekistonning ta‘lim tizimi global miqyosda ta‘lim sohasidagi tenglikni ta‘minlashda o‘z o‘rnini topmoqdadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Qonuni O. R. Ta‘lim to‘g‘risida //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi., O‘RQ-637-son, Toshkent sh. – 2020. – T. 23.
2. Prezidentining O. R. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni //Toshkent sh. – 2017.
3. Xamraeva A. F. MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA‘LIMNI OMMALASHTIRISH //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro, 2016. – №. 33. – C. 170-171.
4. Ergashbayev , S. (2025). YOSHLARNING MA'NAVIYAT DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONLARINING O'RNI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA). Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 2(2), 3–9.
5. muyassar Baxromovna A. et al. INKLYUZIV TA'LIMNING MOHIYATI //PEDAGOGS. – 2024. – T. 54. – №. 1. – C. 119-123.

6. Saidaxon M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISH MASALALARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 18. – №. 8. – С. 76-80.

7. Shohbozbek E. RENEWAL OF THE SOCIAL SPHERE AND STABLE SOCIETY SYSTEM IN THE PROCESS OF REFORMS //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – Т. 4. – №. 09. – С. 16-20.